

O'ZBEK MA'NAVİY MAKONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA NAMOYON BO'LIŞ JIHATLARI

Mamatkulov Eldor Safarovich,

*Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrası o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

УНИКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ПРОЯВЛЕНИЯ ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА УЗБЕКИСТАНА

Маматкулов Элдор Сафарович,

*Преподаватель кафедры философии Термезского
государственного университета, доктор философии (PhD) по
философским наукам*

THE UNIQUE FEATURES AND MANIFESTATIONS OF THE SPIRITUAL SPACE OF UZBEK

Eldor Safarovich Mamatkulov,

*Lecturer at the Department of Philosophy, Termez State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ma'naviy makonining shakllanishi, uning tarixiy-madaniy ildizlari va zamonaviy jamiyatdagi namoyon bo'lish jihatlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, diniy-ma'rifiy meros, urf-odatlar hamda ijtimoiy ongda shakllanadigan ma'naviy tamoyillar o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda o'zbek xalqining ma'naviyati jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy makon, qadriyatlar, ma'naviyat, meros, jamiyat, an'ana, falsafa.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности формирования духовного пространства Узбекистана, его историко-культурные корни и современные формы проявления в обществе. Анализируются национальные ценности, религиозно-просветительское наследие, традиции и духовные принципы, формирующие общественное сознание. Духовность узбекского народа оценивается как важный фактор развития общества и совершенствования личности.

Ключевые слова: духовное пространство, ценности, духовность, наследие, общество, традиции, философия.

Abstract: This article examines the formation of Uzbekistan's spiritual space, its historical and cultural foundations, and its modern manifestations in society. National values, religious-educational heritage, traditions, and spiritual principles shaping social consciousness are analyzed. The spirituality of the Uzbek people is assessed as an important factor influencing societal development and personal growth.

Key words: spiritual space, values, spirituality, heritage, society, tradition, philosophy.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, islohotlar yangi ma'naviy makonni yaratish salmog'ini to'la tushunish uchun bugungi kunda tobora globallashib borayotgan dunyoning misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib borayotgani, yangi jarayonlar ro'y berayotganiga

alohida e'tibor berish zarurati paydo bo'lmoqda. Jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlik, islohotlar kelajagi va taqdiri uchun nihoyatda muhim bo'lgan bunday murakkab vaziyatda xalqimizni zararli va buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrash hozirgi davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangani shubhasiz. Bularning barchasi, bugungi



E-mail:

mamatkulov@tersu.uz
Orcid: 0009-0002-7284-8978

kunda yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston - 30 strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning rivojlanish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat dasturiga aylanganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (JINTEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS).

Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrida bo'lib o'tgan majlisdagi ma'ruzasi esa ana shu yo'nalishdagi faoliyatning joriy yillardagi dolzarb vazifalarini aniq-tiniq belgilab berilgan hujjat sifatida hozirgi kunlardagi ishlarimizning samarali amalga oshirishini ta'minlash mezoni sifatida nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Prezident ma'ruzasining "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak» deb nomlangani aslo bejiz emas va bu mazkur hujjatning nafaqat bugungi kun, balki kelajakka ham yo'nalganini anglatadi. Ayni paytda bu, ma'ruzaning kelgusi yillardagi faoliyat uchun ham tayanch hujjatlardan biri sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Chunki, bugungi kunda mazkur yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog'liq faoliyat samardorligini ta'minlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2023-yilda Toshkent shahrida "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada o'tkazildi. Buyuk ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish maqsadida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi barpo etilmoqda, "Jadid" deb nomlangan yangi gazeta va uning elektron versiyasi tashkil qilindi. Zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi, yangi ijob uylari barpo etildi. Bularning barchasi "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir" degan tamoyil asosida amalga oshirilayotganining yaqqol isbotidir. Ayni paytda mazkur yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning

maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog'liq faoliyat samardorligini ta'minlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda [2].

Qonun ijodkorligi bilan bog'liq yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish zarurati shundaki, davlat siyosati, uning har bir yo'nalishi qonunlarga tayanishi, bu borada ham huquqiy asoslarning mustahkam bo'lishi zarurligi davlatchilik tarixida isbotlangan aksiomalardan biridir.

Shunday ekan, bugungi kunda ma'naviyat sohasida ham qonun ijodkorligini kuchaytirish, O'zbekiston Respublikasining ma'naviyat sohasidagi siyosatining asoslariga doir "Ma'naviyat va ma'naviy faoliyat to'g'risida" qonunni ishlab chiqish davrimizning eng muhim va obyektiv zaruratlaridan biriga aylandi. Ayni paytda, bu borada ushbu qonun davlat siyosatining bu jabhadagi faoliyati, yangilanishlar va hatti-harakatlar strategiyasining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashini ham hisobga olish darkor [3].

O'z navbatida bu, "Yangi O'zbekiston jamiyatining axloq kodeksini"ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rish lozimligidan dalolat beradi. Ayni paytda bunday kodeks yaratilishi O'zbekistonda ham BMT tomonidan qabul qilingan 5 ta axloq kodeksiga mos ravishda faoliyat boshlanganini anglatadi.

O'zbekisto Respublikasi Prezidenti o'z ma'ruzasida "Biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? degan savollar, "ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodi asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha dasturiy hujjat ishlab chiqish" bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgani ham aslo bejiz emas.

Negaki, bugungi kunda radikalizm, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, aqidaparastlik, «ommaviy madaniyat», narkobiznes kabi tahdidlarga qarshi kurash olib borish o'tkir zaruratga aylandi. Shu bilan birga, aholi, ayniqsa yoshlarimizni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrash, ma'naviy barkamol, yetuk ziyoli va tahdidbardosh avlodni tarbiyalash vazifalari ham nihoyatda dolzarblashdi. Ushbu yo'nalishda Milliy g'oyani rivojlantirishning reideologik konsepsiyasi va uni amalga oshirishga doir Milliy harakat dasturini ishlab chiqish zarurati ham ana shu obyektiv ehtiyoj bilan belgilanadi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlangani kabi: "insoniyat dunyosining o'ziga xos bir yoritqichi – "ma'naviyat chirog'i" bor... O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat chirog'i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo mas'uliyat tuyg'usini uyg'otib turishi zarur...".

Ma'naviyat chirog'i nafaqat inson qalbi, balki ong-u shuurini ham yoritib turadi, vijdonini uyg'otadi, yashashdan maqsadi va o'zligini anglashga yordam beradi. U insonni tarixni o'rganishga, ota-bobolarining kimligini bilishga va ularga munosib bo'lishga, xalq va Vatan taqdiri uchun qayg'urishga, kelajak haqida o'ylashga va shu yo'lda ishlashga undaydi.

Bu jihatdan, Vatanimiz tarixida tub burilish yasalayotgan hozirgi davrda har bir yurtdoshimiz yuragida ana shunday ma'naviyat chirog'i porlab turishiga erishish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda u hammamizni ezgu niyatlar va amallarga undab, qalbimizda el-yurt va xalq taqdiri uchun mas'uliyat hissini mustahkamlash uchun harakat qilishimiz zaruriyatini bugungi davr talabiga aylantirdi [5].

"Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas". Mazkur ibora paydo bo'lganidan buyon ming yillar o'tdi. Bu – butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda, yangilanishda, deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish xususiyati shunday". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli fundamental asari ana shu fikr bilan boshlanadi va u jamiyat hayotining barcha sohalari kabi, mamlakatimizda keyingi yillarda ro'y berayotgan ma'naviy yangilanish dialektikasini to'g'ri tushunish, uning harakatlantiruvchi kuchlari, omillari va bugungi kundagi odimlarining falsafiy mohiyati va ahamiyatini chuqur anglashning metodologik asoslarini belgilaydi.

Bizda ayrim falsafiy tushunchalar, xususan "dialektika" kabi atamalardan faqat ilmiy asarlarda foydalangan ma'qul, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa gazeta maqolalarida bundan tiyilish abzal,

degan bir tomonlama tushunish shakllangan. Bunday yondashuvning ma'naviy kemtikligi shundaki, u "Xalq ommasi ilmiy atamalar ma'nosini yaxshi tushunmaydi, shuning uchun ommaviy axborot vositalarida nihoyatda sodda va jaydari tildan foydalangan ma'qul" degan bahsli qarashga asoslanadi. Aynan ana shunday qarashning ma'naviy hayotda ildiz otishi va keng yoyilishi o'tgan o'n yilliklarda ba'zi nashrlarning ilmiy jamoatchilik e'tiboridan qolishi, ko'plab olimlar va mutaxassislarining tahririyatlardan oyog'ini uzib qo'yishiga sabab bo'ldi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

So'z millatimiz xususiyatlari haqida borar ekan, shuni aytish kerakki, millatlar ham xuddi inson kabi – har bir millatning qator ijobiy xislatlari va xususiyatlari bor. Ayni paytda, uning kamchilik va nuqsonlari ham mavjud. O'z millati uchun jon kuydiruvchi kishi o'z millatining yutuq va tarixiy xizmatlaridan faxrlanadi, ammo har qadamda unga tanqidiy ko'z bilan boqib, undagi illatlarni tozalashga, nuqsonlarni bartaraf etishga chaqiradi. Bu jarayonda faol qatnashadi va shu yo'lda o'z millatining rivojlanishini tezlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdumalikov A. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida shaxs informatsion madaniyatini shakllantirish: falsafa fan doktori (PhD) diss. – T., 2017.
2. Bekmurodov Mansur. O'zbek mentaliteti. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
4. Rustamova M. Yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlari. - Toshkent : Mehnat, 2010. - 19 b.
5. Tashanov A. Buzg'unchi g'oyalarning milliy o'zlikni anglashga salbiy ta'siri. Falsafa fan. dokt. ...diss. – T.: 2017.
6. Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi: ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy jihatlari. – T.: Istiqol, 2013. – 207 b.
7. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешовой). Институт научной и педагогической информации РАО., "ЮРКОМПАНИ", 2012.